IMPERIYALAR QULASHINING ASOSIY SABABLARI: RIM,USMONIYLAR, XORAZMSHOHLAR

Jafaraliyeva Zarrina Xusanboy qizi
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Namangan filiali "Tarix" yo'nalishi I bosqich
zarrinajafaraliyeva98@gmail.com
+998970507307

ANNOTATSIYA

Ushbu ilmiy maqolada qadimgi va o'rta asrlarning yirik siyosiy tuzilmalari - Rim imperiyasi, Usmoniylar imperiyasi hamda Xorazmshohlar davlatining qulash sabablari tarixiy-taqqoshlash usuli asosida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu imperiyalarning siyosiy boshqaruv tizimi, iqtisodiy inqirozlar, ichki ijtimoiy ziddiyatlar va tashqi bosqinlar ta'siri o'rganiladi.

Maqolada, xususan, Rim imperiyasining ichki siyosiy beqarorligi va iqtisodiy tanazzuli, Usmoniylar imperiyasining modernizatsiya jarayonida yuzaga kelgan muammolari hamda Xorazmshohlar davlatining markazlashmagan boshqaruvi va Mo'g'ullar istilosi oqibatida inqirozga uchrashi ilmiy manbalar asosida yoritiladi. Tahlil natijasida imperiyalar qulashida umumiy qonuniyatlar - markaziy hokimiyatning zaiflashuvi, iqtisodiy tizimning izdan chiqishi, harbiy salohiyatning pasayishi va tashqi bosim omillari muhim rol o'ynashi aniqlanadi.

Kalit so'zlar. Imperiya, siyosiy inqiroz, iqtisodiy tanazzul, markazlashuv, harbiy zaiflashuv, tashqi bosqin, ijtimoiy ziddiyatlar, davlat boshqaruvi, tarixiy tahlil, sivilizatsiya

АННОТАЦИЯ

В данной научной статье анализируются причины упадка крупнейших политических образований древнего и средневекового мира - Римской империи, Османской империи и государства Хорезмшахов - на основе историко-сравнительного метода. В исследовании рассматриваются

политическая система управления, экономические кризисы, внутренние социальные противоречия и влияние внешних вторжений в указанных империях.

Особое внимание в статье уделяется внутренней политической нестабильности и экономическому упадку Римской империи, проблемам, возникшим в процессе модернизации Османской империи, а также децентрализованной системе управления государства Хорезмшахов и его последующему краху в результате монгольского нашествия. На основе анализа выявлено, что общими закономерностями упадка империй являются ослабление центральной власти, разрушение экономической системы, снижение военной мощи и воздействие внешних факторов.

Ключевые слова. империя, политический кризис, экономический упадок, централизация, военная слабость, внешнее вторжение, социальные противоречия, государственное управление, исторический анализ, цивилизация.

ABSTRACT

This scientific article analyzes the causes of the decline of major political entities of the ancient and medieval world - the Roman Empire, the Ottoman Empire, and the Khwarazmian State - based on a historical-comparative method. The study examines the political governance systems, economic crises, internal social contradictions, and the impact of external invasions on these empires.

Special attention is given to the internal political instability and economic decline of the Roman Empire, the challenges that emerged during the modernization process of the Ottoman Empire, as well as the decentralized governance of the Khwarazmian State and its subsequent collapse due to the Mongol invasion. The analysis reveals that the general patterns of imperial decline include the weakening of central authority, disruption of the economic system, decline in military power, and the influence of external pressures.

Keywords. empire, political crisis, economic decline, centralization, military weakness, external invasion, social contradictions, state governance, historical analysis, civilization.

Kirish. Imperiyalar insoniyat tarixida murakkab siyosiy tuzilma sifatida muhim o‘rin egallaydi. Ular keng hududlarni birlashtirgan, turli xalqlar va madaniyatlarni yagona siyosiy tizim ostida boshqargan davlat shakli hisoblanadi. Biroq tarix shuni ko‘rsatadiki, hatto eng qudratli imperiyalar ham vaqt o‘tishi bilan tanazzulga yuz tutgan va oxir-oqibat qulagan. Shu nuqtai nazardan imperiyalar qulashining sabablarini o‘rganish tarixshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Masalan, Rim imperiyasi uzoq vaqt davomida Yevropa, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq hududlarida hukmronlik qilgan bo‘lsa-da, milodiy V asrga kelib ichki siyosiy beqarorlik, iqtisodiy muammolar va tashqi bosqinlar natijasida parchalanib ketdi. Tarixchi Edward Gibbon o‘zining mashhur “The History of the Decline and Fall of the Roman Empire” asarida Rimning qulashini asosan ichki tanazzul va fuqarolik fazilatlarining susayishi bilan izohlaydi.

Xuddi shuningdek, Usmoniylar imperiyasi XV-XVII asrlarda eng qudratli davlatlardan biri bo‘lgan bo‘lsa-da, XIX-XX asrlarga kelib iqtisodiy ortda qolish, boshqaruv tizimidagi korrupsiya va Yevropa davlatlari bilan raqobatda yutqazish natijasida zaiflashdi. Tadqiqotchilar, jumladan Halil Inalcik, Usmoniylar tanazzulini markaziy boshqaruv tizimining samarasizligi va modernizatsiya jarayonlarining sustligi bilan bog‘laydi.

Markaziy Osiyo tarixida muhim o‘rin tutgan Xorazmshohlar davlati esa qisqa muddat ichida yuksalib, XIII asr boshlarida katta hududni egallagan bo‘lsa-da, ichki siyosiy zaiflik va markazlashmagan boshqaruv tufayli Chingizxon boshchiligidagi mo‘g‘ul qo‘shinlariga qarshi samarali qarshilik ko‘rsata olmadi. Natijada davlat tez fursatda inqirozga uchradi.

Mazkur maqolaning maqsadi - Rim, Usmoniylar va Xorazmshohlar imperiyalarining qulash sabablarini o‘zaro taqqoslash orqali umumiy va xos

omillarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot davomida tarixiy-taqqoshlash, tizimli tahlil va manbashunoslik usullaridan foydalaniladi.

Asosiyq ism. Imperiya insoniyat tarixida eng murakkab va yirik siyosiy tuzilmalardan biri hisoblanadi. U markazlashgan hokimiyat ostida keng hududlarni, turli etnik guruhlar va madaniyatlarni birlashtirgan davlat shaklidir. Imperiyalar odatda harbiy kuch, iqtisodiy resurslar va siyosiy boshqaruv tizimining uyg‘unligi natijasida vujudga keladi. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, imperiyalar yuksalish va kengayish bosqichidan so‘ng, muayyan tarixiy sharoitlarda tanazzul va qulash jarayonini boshdan kechiradi.

Imperiya tushunchasi tarixshunoslikda turlicha talqin qilingan. Masalan, Edward Gibbon Rim imperiyasi tarixini tahlil qilar ekan, davlatlarning qulashini ichki siyosiy zaiflik, axloqiy tanazzul va boshqaruv tizimidagi buzilishlar bilan bog‘laydi. Uning “Rim imperiyasining tanazzuli va qulashi tarixi” asarida imperiya kuchining faqat harbiy qudratga emas, balki fuqarolik intizomi va davlat boshqaruvi samaradorligiga ham bog‘liqligi ta’kidlanadi. Arnold Toynbee esa sivilizatsiyalar rivojlanishini “chaqiriq va javob” nazariyasi asosida tushuntirib, har bir jamiyat tashqi va ichki muammolarga mos javob bera olmasa, inqirozga yuz tutishini qayd etadi.

Imperiyalar qulashining sabablari odatda bir nechta omillar majmuasidan iborat bo‘ladi. Ular ichki va tashqi omillarga bo‘linadi. Ichki omillarga siyosiy beqarorlik, iqtisodiy inqiroz, ijtimoiy tengsizlik, boshqaruv tizimining zaiflashuvi va korrupsiya kiradi. Bunday holatlar davlat ichida tartibsizlikni kuchaytirib, markaziy hokimiyatning ta’sirini kamaytiradi. Tashqi omillar esa urushlar, bosqinlar, migratsion harakatlar va qo‘shni davlatlar bilan raqobatni o‘z ichiga oladi. Ko‘pincha imperiyalar aynan ichki zaiflik mavjud bo‘lgan paytda tashqi bosimga bardosh bera olmaydi.

Tarixshunoslikda imperiyalar inqirozini o‘rganishda turli yondashuvlar mavjud. Klassik yondashuvda imperiya qulashining asosiy sababi sifatida ichki axloqiy va siyosiy tanazzul ko‘rsatiladi. Sivilizatsion yondashuvda esa

jamiyatlarning rivojlanishi va inqirozi ularning tashqi va ichki chaqiriqlarga bergan javobiga bog‘liq ekani ta’kidlanadi. Zamonaviy yondashuvlar esa imperiyalar qulashini kompleks jarayon sifatida ko‘rib, iqtisodiy, demografik, texnologik va geosiyosiy omillarni birgalikda tahlil qiladi.

Umuman olganda, imperiyalar qulashini faqat bitta sabab bilan tushuntirib bo‘lmaydi. Bu jarayon ko‘p omilli va murakkab bo‘lib, siyosiy, iqtisodiy, harbiy va ijtimoiy omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga keladi. Har qanday imperiya barqarorligining asosiy sharti ichki siyosiy birlik va iqtisodiy muvozanat hisoblanadi. Ushbu omillar zaiflashganda, imperiya asta-sekin inqirozga yuz tutadi va tarix sahnasidan chiqib ketadi.

Rim imperiyasi qadimgi dunyoning eng qudratli davlatlaridan biri bo‘lib, uzoq vaqt davomida Yevropa, Shimoliy Afrika va Yaqin Sharq hududlarida hukmronlik qilgan. Biroq milodiy V asrga kelib bu imperiya chuqur ichki va tashqi inqirozlar natijasida parchalanish jarayoniga kirib, 476-yilda G‘arbiy Rim imperiyasining qulashi bilan tarix sahnasidan chiqdi. Bu jarayon birgina sabab bilan emas, balki bir nechta murakkab omillarning o‘zaro ta’siri natijasida yuzaga kelgan.

Rim imperiyasining qulashida birinchi navbatda siyosiy beqarorlik muhim rol o‘ynadi. Imperatorlik hokimiyati tez-tez almashib turgan, harbiy qo‘mondonlar o‘rtasidagi taxt uchun kurashlar davlat boshqaruvini zaiflashtirgan. Markaziy hokimiyatning kuchsizlanishi viloyatlarning mustaqil harakat qilishiga olib kelgan va imperiya ichki birlikdan mahrum bo‘lgan.

Iqtisodiy inqiroz ham Rim tanazzulining asosiy sabablaridan biri bo‘lgan. Soliq tizimi izdan chiqqan, davlat xarajatlari keskin oshgan va inflyatsiya kuchaygan. Qul mehnatiga asoslangan iqtisodiy tizim yangi sharoitlarga moslasha olmagan, ishlab chiqarish samaradorligi pasaygan. Natijada savdo aloqalari zaiflashib, iqtisodiy barqarorlik yo‘qolgan.

Harbiy tizimdagi zaiflashuv ham imperiya qulashini tezlashtirgan. Rim armiyasi avvalgi intizom va professional darajasini yo‘qotgan, ko‘plab askarlar yollanma jangchilardan iborat bo‘lib qolgan. Shu bilan birga, shimoldan kelgan

german qabilalari imperiya hududlariga bosqinlar uyushtirib, Rimning harbiy qudratini sindirgan. Ayniqsa 476-yilda G‘arbiy Rim imperiyasining tugatilishi bu jarayonning yakuniy bosqichi bo‘lgan.

Shu tariqa Rim imperiyasi ichki siyosiy zaiflik, iqtisodiy inqiroz va tashqi bosqinlar uyg‘unligi natijasida qulagan. Tarixchilar, jumladan Edward Gibbon, bu jarayonni imperiya ichki tuzumining yemirilishi bilan izohlaydi.

Usmoniylar imperiyasi XIV asrdan XX asr boshigacha davom etgan yirik imperiya bo‘lib, uch qit’a - Yevropa, Osiyo va Afrikada keng hududlarni boshqargan. Biroq XVII asrdan boshlab bu imperiya asta-sekin zaiflashish jarayoniga kirib, XX asr boshida butunlay parchalanib ketdi. Uning inqirozi ham ichki va tashqi omillar yig‘indisi bilan izohlanadi.

Usmoniylar imperiyasida siyosiy boshqaruv tizimi asta-sekin zaiflashdi. Sulton hokimiyati avvalgidek kuchli markazlashgan tizim bo‘lmay qoldi, saroy ichidagi intriga va taxt uchun kurashlar davlat barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Viloyat hokimlari markazga bo‘ysunish darajasini kamaytirib, amalda yarim mustaqil siyosat yurita boshladi. Bu esa imperiyaning ichki birligini zaiflashtirdi.

Iqtisodiy jihatdan ham Usmoniylar imperiyasi Yevropa davlatlaridan ortda qola boshladi. Buyuk geografik kashfiyotlardan so‘ng asosiy savdo yo‘llari dengizga ko‘chdi va Usmoniylar nazoratidagi karvon yo‘llarining ahamiyati pasaydi. Yevropada sanoat inqilobi boshlanishi esa Usmoniylar iqtisodiyotining raqobatbardoshligini keskin kamaytirdi. Natijada imperiya tashqi qarzlarga bog‘lanib qoldi va moliyaviy mustaqilligini yo‘qota boshladi.

Harbiy sohada ham jiddiy muammolar yuzaga keldi. Ilgari imperiyaning asosiy tayanchi bo‘lgan yangiçeri qo‘shinlari vaqt o‘tishi bilan harbiy intizom va samaradorligini yo‘qotdi. Yevropa davlatlari esa zamonaviy qurol-yarog‘ va harbiy texnologiyalarni tez rivojlantirib, Usmoniylar armiyasidan ustunlikka erishdi.

Shuningdek, imperiya ichida milliy harakatlarning kuchayishi ham parchalanish jarayonini tezlashtirdi. Bolqon hududlarida mustaqillik uchun kurashlar kuchayib, asta-sekin imperiyaning hududiy yaxlitligi buzila boshladi.

XIX-XX asrlarda bu jarayon yanada keskinlashib, Usmoniylar imperiyasining siyosiy parchalanishiga olib keldi.

Umuman olganda, Usmoniylar imperiyasining inqirozi siyosiy markazlashuvning zaiflashuvi, iqtisodiy ortda qolish, harbiy tizimning eskirishi va milliy harakatlarning kuchayishi natijasida yuzaga kelgan murakkab tarixiy jarayon bo‘lgan.

Xorazmshohlar davlati XII-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda eng yirik va qudratli davlatlardan biri bo‘lib, Movarounnahr, Xuroson, Eron va qo‘shni hududlarni o‘z ichiga olgan keng imperiya edi. Biroq bu davlat juda qisqa tarixiy davr ichida yuksalishdan so‘ng tez sur’atda qulash jarayonini boshdan kechirdi. Uning inqirozi ichki siyosiy zaiflik va tashqi bosqinlar uyg‘unligi natijasida yuzaga kelgan.

Xorazmshohlar davlatining asosiy muammolaridan biri siyosiy markazlashuvning yetarli darajada shakllanmaganligidir. Garchi sulton hokimiyati mavjud bo‘lsa-da, viloyat hokimlari va amirlar ko‘pincha markazga to‘liq bo‘ysunmagan. Bu esa davlat ichida siyosiy birlikning zaiflashishiga olib kelgan. Natijada muhim qarorlar markazlashmagan holda qabul qilingan va davlat boshqaruvida tartibsizlik kuchaygan.

Shuningdek, Xorazmshohlar tashqi siyosatda jiddiy xatolarga yo‘l qo‘ygan. Ayniqsa, O‘tror voqeasi imperiya taqdirida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Savdo karvoni bilan bog‘liq diplomatik mojarolar va elchilarning qatl etilishi Xorazmshohlar va Chingizxon o‘rtasidagi to‘qnashuvni muqarrar qilib qo‘ydi. Bu holat Mo‘g‘ullar istilosiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri sabab bo‘lgan.

Mo‘g‘ullar bosqini Xorazmshohlar davlatining tez qulashiga olib kelgan eng asosiy omil hisoblanadi. 1219-1221-yillarda amalga oshirilgan yurishlar davomida yirik shaharlar - Buxoro, Samarqand, Urganch kabi markazlar vayron qilingan. Harbiy qarshilik ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, davlat armiyasi markazlashmagan va muvofiqlashtirilmagan edi. Bu esa mo‘g‘ul qo‘shinlarining tez g‘alabasini ta’minlagan.

Natijada Xorazmshohlar davlati ichki siyosiy zaiflik, diplomatik xatolar va kuchli tashqi bosim - Mo‘g‘ullar istilosi natijasida qisqa muddat ichida tarix sahnasidan yo‘qolgan.

Rim, Usmoniylar va Xorazmshohlar imperiyalarining qulash sabablari turli tarixiy davrlarda yuz bergan bo‘lsa-da, ularning tanazzul jarayonida bir qator umumiy qonuniyatlar kuzatiladi. Bu davlatlarning barchasida avvalo markaziy hokimiyatning zaiflashuvi asosiy muammo bo‘lgan. Siyosiy boshqaruv tizimi kuchsizlashgach, imperiya ichidagi birlik va nazorat yo‘qolgan.

Ikkinchi muhim umumiy omil iqtisodiy inqirozdir. Rimda soliq tizimi va ishlab chiqarish tizimi izdan chiqqan bo‘lsa, Usmoniylarda savdo yo‘llarining o‘zgarishi va sanoat ortda qolishi kuzatilgan. Xorazmshohlarda esa uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlik shakllanmagan va urushlar iqtisodiy tizimni zaiflashtirgan.

Uchinchi umumiy jihat harbiy tizimning zaiflashuvidir. Rim armiyasi yollanma askarlarga tayanib qolgan, Usmoniylar armiyasi esa texnologik jihatdan ortda qolgan, Xorazmshohlarda esa markazlashgan harbiy boshqaruv yo‘qligi sababli qo‘shinlar muvofiqlashtirilmagan edi.

Biroq har bir imperiyaning o‘ziga xos qulash sabablari ham mavjud. Rim imperiyasi asosan ichki siyosiy va axloqiy inqiroz tufayli qulagan bo‘lsa, Usmoniylar imperiyasi modernizatsiyadan ortda qolish va global iqtisodiy tizimdagi o‘zgarishlarga moslasha olmaslik sababli zaiflashgan. Xorazmshohlar davlati esa asosan tashqi bosqin - Mo‘g‘ullar istilosi natijasida tez va keskin qulagan.

Umumiy xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, imperiyalar qulashining asosiy sababi birgina omil emas, balki siyosiy, iqtisodiy, harbiy va tashqi omillarning o‘zaro ta’siri natijasidir. Tarixiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, har qanday imperiyaning barqarorligi markaziy hokimiyatning kuchi, iqtisodiy tizimning barqarorligi va harbiy qudratning saqlanishiga bog‘liqdir.

Xulosa. Ushbu ilmiy maqolada Rim imperiyasi, Usmoniylar imperiyasi va Xorazmshohlar davlatining qulash sabablari tarixiy-qiyosiy yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, har uchala imperiyaning inqirozi

bir-biridan davr va geografik jihatdan farq qilsa-da, ularning qulash jarayonida umumiy qonuniyatlar mavjud.

Avvalo, barcha imperiyalarda siyosiy markazlashuvning zaiflashuvi asosiy ichki omil sifatida namoyon bo‘ladi. Rim imperiyasida bu holat imperatorlik hokimiyatining tez-tez almashinuvi va viloyatlarning mustaqillashuvi orqali, Usmoniylar imperiyasida saroy ichidagi siyosiy kurashlar va viloyat hokimlarining kuchayishi orqali, Xorazmshohlarda esa markaz va mahalliy amirlar o‘rtasidagi nomutanosiblik orqali ko‘rinadi.

Ikkinchi muhim umumiy omil iqtisodiy tizimning izdan chiqishidir. Rimda qul mehnatiga asoslangan iqtisodiyot inqirozi, Usmoniylarda global savdo yo‘llarining o‘zgarishi va sanoat ortda qolishi, Xorazmshohlarda esa uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikning shakllanmaganligi imperiyalar zaiflashuvini tezlashtirgan.

Uchinchi asosiy omil harbiy tizimning zaiflashuvi va tashqi bosimdir. Rim imperiyasi german qabilalari bosqinlari natijasida, Usmoniylar imperiyasi Yevropa davlatlarining harbiy va texnologik ustunligi sababli, Xorazmshohlar esa Mo‘g‘ullar istilosi natijasida yemirilgan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, imperiyalar qulashida faqat tashqi bosqin emas, balki ichki zaiflik hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tashqi kuchlar odatda mavjud ichki muammolarni yanada kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, har qanday imperiyaning barqarorligi uch asosiy ustunga tayanadi: siyosiy barqarorlik, iqtisodiy mustahkamlik va harbiy qudrat. Ushbu omillardan biri zaiflashsa ham, uzoq muddatda butun davlat tizimi inqirozga yuz tutishi mumkin. Shu bois imperiyalar tarixini o‘rganish zamonaviy davlat boshqaruvi va siyosiy barqarorlikni tushunishda muhim ilmiy ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Gibbon, E. (1776-1789). *The History of the Decline and Fall of the Roman Empire*. London: Strahan & Cadell.

2. Toynbee, A. J. (1934-1961). *A Study of History* (Vol. 1-12). Oxford University Press.
3. Inalcik, H. (1973). *The Ottoman Empire: The Classical Age 1300-1600*. London: Weidenfeld & Nicolson.
4. McNeill, W. H. (1963). *The Rise of the West: A History of the Human Community*. Chicago: University of Chicago Press.
5. Morgan, D. (2007). *The Mongols*. Oxford: Blackwell Publishing.
6. Soucek, S. (2000). *A History of Inner Asia*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Bosworth, C. E. (1996). *The New Islamic Dynasties*. Edinburgh University Press.
8. Bartold, V. V. (1968). *Turkestan Down to the Mongol Invasion*. London: Luzac & Co.
9. Nicolle, D. (2001). *The Ottoman Empire: The History and Legacy of the Islamic Empire*. London: Greenhill Books.
10. Saunders, J. J. (1971). *The History of the Mongol Conquests*. London: Routledge.
11. Ibn al-Athir. (1959). *Al-Kamil fi al-Tarikh* (Tarixning mukammal kitobi). Beirut: Dar Sader.
12. Rashid al-Din. (1998). *Jami al-Tawarikh*. Tehran: Nashr-e Elmi.